


**2020-yil 1-may holatiga ko'ra, yuridik shaxs bo'lgan
korxonalar va tashkilotlar demografiyasi
bo'yicha tahliliy ma'lumot**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.




2020-yil yanvar-aprel oylarida viloyatimizda 2 744 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 084 taga kamaygan.

2020-yil 1-may holatiga ko'ra yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)





Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-may holatiga ko'ra 35 879 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,3 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,8 % savdo, 18,1 % sanoat, 8,6 % qurilish, 7,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,9 % tashish va saqlash, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 % axborot va aloqa hamda 24,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi 7,7 %**



**Sanoat
18,1 %**




**Qurilish
8,6 %**



**Savdo
26,8 %**



**Tashish va
saqlash 2,9 %**



**Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar 7,9 %**



**Axborot va aloqa
1,6 %**



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy
xizmat ko'rsatish 2,0 %**



**Boshqa turlar
24,4 %**



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.05.2020 yil	
	01.05.2019 yil	01.05.2020 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	29 826	35 879	120,3	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 226	2 775	124,7	7,7
Sanoat	5 623	6 488	115,4	18,1
Qurilish	2 526	3 069	121,5	8,6
Savdo	7 165	9 608	134,1	26,8
Tashish va saqlash	929	1 047	112,7	2,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 129	2 831	133,0	7,9
Axborot va aloqa	453	587	129,6	1,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	627	723	115,3	2,0
Boshqa turlari	8 148	8 751	107,4	24,4


Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (10 560 ta), Urgut (3 101 ta), Pastdarg'om (3 046 ta) va Samarqand (2 598 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (834 ta), Paxtachi (900 ta) hamda Nurobod (1 052 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 33 579 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5 090 ta (17,9 %) ga o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,9 % savdo, 17,9 % sanoat, 8,5 % qurilish, 7,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3,0 % tashish va saqlash, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 % axborot va aloqa va 24,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (10 061 ta), Urgut (3 007 ta), Pastdarg'om (2 801 ta), Samarqand (2 359 ta) va Ishtixon (1 786 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (776 ta), Paxtachi (858 ta) hamda Nurobod (964 ta) tumanlarida esa korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


2020-yil yanvar-aprel oylarida 2 744 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilning shu davriga nisbatan 39,5 foizga kamaygan.

Yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Samarqand shahri (600 ta), Kattaqo'rg'on (239 ta), Pastdarg'om (232 ta va) Samarqand (230 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Paxtachi (77 ta), Qo'shrabot (82 ta) hamda Nurobod (94 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1 157 ta), sanoat (495 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (364 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (282 ta), boshqa faoliyat turlari (187 ta) va qurilish (142 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (38 ta), axborot va aloqa (39 ta) hamda tashish va saqlash (40 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tijorat korxonalarini
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-may holatiga ko'ra, 27 976 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5 735 ta, oilaviy korxonalar – 5 083 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 16 602 ta, unitar korxonalar – 225 ta, aksiyadorlik jamiyati – 30 ta va boshqalar 301 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2020-yil 1-may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 529 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 91 taga yoki 20,8 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-may holatiga ko'ra, xorijiy kapital ishtirokida 529 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonalar va tashkilotlarning eng yuqorisi Samarqand shahri (231 ta), Urgut (43 ta), Jomboy (37 ta) va Samarqand (35 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Narpay (4 ta), Paxtachi (9 ta) hamda Kattaqo'rg'on (10 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 367 tasi qo'shma korxonalar, 162 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining faollik darajasi, %




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Samarqand viloyati	529	367	162
Samarqand sh.	231	143	88
Kattaqo'rg'on sh.	17	14	3
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	24	21	3
Bulung'ur	24	9	15
Jomboy	37	31	6
Ishtixon	13	7	6
Kattaqo'rg'on	10	10	
Qo'shrabot	15	6	9
Narpay	4	4	
Payariq	16	9	7
Pastdarg'om	27	21	6
Paxtachi	9	5	4
Samarqand	35	29	6
Nurobod	10	10	
Urgut	43	38	5
Tayloq	14	10	4

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil yanvar-aprel oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 33 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 taga kamaygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahar (12 ta yoki jamiidagi ulushi 36,4 %), Bulung'ur (5 ta yoki 15,2 %) tumani hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Oqdaryo, Jomboy, Ishtixon, Narpay, Payariq, Nurobod va Tayloq (1 ta yoki 3,0 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 12 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 4 ta, Rossiya Federatsiyasi - 4 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2020-yil yanvar-aprel oylarida Isroil davlati, Tojikiston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (15 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (8 ta), savdo (5 ta) va qurilish (2 ta), tashish va saqlash (2 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (1 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-may holatiga ko'ra, viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 27 764 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-may holatiga qaraganda 21,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 8 662 tasi (31,2 %) Samarqand shahri, 2 521 tasi (9,1 %) Urgut, 2 308 tasi (8,3 %) Pastdarg'om, 2 065 tasi (7,4 %) Samarqand, 1 476 tasi (5,3 %) Ishtixon hamda 1 414 tasi (5,1 %) Payariq tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
hududlar kesimida soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 27 764 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 8 980 tasi (32,3 %) - savdo, 5 936 tasi (21,4 %) - sanoat, 2 827 tasi (10,2 %) - qurilish, 2 620 tasi (9,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 2 413 tasi (8,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 966 tasi (3,5 %) - tashish va saqlash, 573 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 529 tasi (1,9 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 2 920 tasi (10,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


**Kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni to'g'risida
MA'LUMOT**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

birlikda

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	01.05.2020 yil	01.05.2020 yil	2020 yil yanvar-aprel
Samarqand viloyati	29 837	27 764	2 698
Samarqand sh.	9 066	8 662	582
Kattaqo'rg'on sh.	1 065	992	108
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	1 167	997	101
Bulung'ur	1 094	1 001	119
Jomboy	1 077	1 047	129
Ishtixon	1 610	1 476	170
Kattaqo'rg'on	1 489	1 385	238
Qo'shrabot	602	546	80
Narpay	924	886	106
Payariq	1 611	1 414	130
Pastdarg'om	2 544	2 308	231
Paxtachi	642	614	73
Samarqand	2 289	2 065	228
Nurobod	830	746	93
Urgut	2 607	2 521	196
Tayloq	1 220	1 104	114

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil yanvar-aprel oylarida 2 698 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 26,1 foizga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahri (582 ta), Kattaqo'rg'on (238 ta), Pasterdarg'om (231 ta), Samarqand (228 ta) va Urgut (196 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Paxtachi (73 ta), Qo'shrabot (80 ta) hamda Nurobod (93 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1 157 ta), sanoatda (494 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (363 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (282 ta), boshqa turlarida (143 ta) va qurilishda (142 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (38 ta), axborot va aloqada (39 ta) hamda tashish va saqlashda (40 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-may holatiga ko'ra, 5 442 tani tashkil etib, ulardan 5 083 tasi yoki 93,4 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 51,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 29,1 % yoki 1 479 tasi savdo, 27,9 % yoki 1 419 tasi sanoat, 25,6 % yoki 1 301 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 7,7 % yoki 391 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,8 % yoki 39 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki 49 tasi axborot va aloqa, 0,8 % yoki 43 tasi qurilish, 0,3 % yoki 14 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 6,8 % yoki 348 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	jamiga nisbatan ulushi, %
Samarqand viloyati	871	100
Samarqand sh.	131	15,0
Kattaqo'rg'on sh.	22	2,5
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	32	3,7
Bulung'ur	39	4,5
Jomboy	54	6,2
Ishtixon	34	3,9
Kattaqo'rg'on	105	12,1
Qo'shrabot	10	1,1
Narpay	45	5,2
Payariq	70	8,0
Pastdarg'om	90	10,3
Paxtachi	6	0,7
Samarqand	128	14,7
Nurobod	4	0,5
Urgut	52	6,0
Tayloq	49	5,6

2020-yil yanvar-aprel oylarida 871 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 115 taga kamroqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Samarqand shahar (131 ta), Samarqand tumani (128 ta), Kattaqo'rg'on (105 ta) va Pastdarg'om tumanlari (90 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qo'shrabot (10 ta), Paxtachi (6 ta) va Nurobod tumanlarida (4 ta) tashkil etilgan.

2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, birlikda



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 45,8 % yoki 399 tasi savdo, 21,3 % yoki 186 tasi sanoat, 17,8 % yoki 155 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 8,8 % yoki 77 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda 4,6 % yoki 40 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

KTYADR – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentyabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risida”gi 274-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9-fevraldagi 66-son qaroriga asosan ro‘yxatdan o‘tkazuvchi (Adliya vazirligi va Davlat xizmatlari agentligi) organlari tomonidan berilgan yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.



**Samarqand viloyati
statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni
yuritish bo‘limi
Tel:66 230-45-42**